



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI T AHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>İslamutdinov Vadim</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025

Accepted: 15 June 2025

Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

MORAL EDUCATION IN LEGAL EDUCATION AND THE ACTIVITIES OF LEGAL CLINICS

Djumaniyozova Dilfuza Kamalovna

Candidate of Philosophical Sciences,

Associate Professor of the Department of General Educational Disciplines and Culture of TSUL

Ibraximova Dilorom Saloydinovna

Teacher of the Department of General Educational Disciplines and Culture of TSUL

Abstract. The article analyzes the qualities formed as a result of moral education, which help lawyers to honestly and conscientiously fulfill their professional duties, avoid negative situations such as corruption and abuse of office, and faithfully serve citizens.

Keywords: ethics, moral education, youth, legal assistance, legal personnel, legal clinic.

YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA

Djumaniyozova Dilfuza Kamalovna

Falsafa fanlari nomzodi,

TDYU "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasi dotsenti

Ibraximova Dilorom Saloydinovna

TDYU "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: diloromibraximova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuridik kadrlarni tayyorlashda axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Axloqiy tarbiya natijasida shakllangan fazilatlar yuridik kadrlarga o'z kasbiy burchlarini halol va vijdongan bajarish, korrupsiya hamda mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish kabi salbiy holatlardan uzoq bo'lish, fuqarolarga sadoqat bilan xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: axloq, axloqiy tarbiya, yoshlar, huquqiy yordam, yuridik kadrlar, yuridik klinika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N11>

Huquqiy soha mutaxassislar nafaqat chuqur bilim, kasbiy ko'nikma va kompetensiyalarga, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ham ega bo'lishi zarur. Chunki bu omillar jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Sudyalar, prokurorlar, advokatlar, tergovchilar va qonun ijodkorlari jamiyatdaadolat va qonuniylikni ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Ularning axloqiy tamoyillarga rioya qilishi va kasbiy madaniyati fuqarolarning huquqiy tizimga nisbatan ishonchini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli yuridik ta'linda axloqiy tarbiyani shakllantirish dolzARB va ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Professional huquqshunoslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash,adolatni qaror toptirish, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlash vazifasini bajaradilar. Bu

jarayonda ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar hisoblanuvchi vatanparvarlik, halollik, adolatparvarlik, mas'uliyatlilik, xolislik kabi sifatlar bo'lishi talab etiladi.[1] Axloqiy tarbiya natijasida shakllangan fazilatlar yuridik kadrlarga o'z kasbiy burchlarini halol va vijdonan bajarish, korrupsiya hamda mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish kabi salbiy holatlardan uzoq bo'lish, fuqarolarga sadoqat bilan xizmat qilish imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda yuridik ta'lim jarayoniga kasbiy etika va axloqiy tarbiya majburiy tarkibiy qismi sifatida o'qitiladi. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aholining adolatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan mazkur jamiyat a'zosi bo'lgan hamda huquqiy islohotlarni amalga oshirishda katta rol o'ynovchi professional huquqshunoslarning axloqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, huquqshunoslarning axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilishi nafaqat qonunchilikning barqarorligini, balki jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishini ham ta'minlaydi. [2]

Yuridik mutaxassislarni tayyorlashda axloqiy tarbiyaning tutgan o'rnnini hamda uning asosiy tamoyillarini tahlil qilishdan avval, axloqiy tarbiya tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Ushbu tushuncha pedagogika va axloqshunoslik fanlari kesishmasida qo'llanilib, shaxs ongiga jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini singdirish, ularning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish jarayonini anglatadi. Axloqiy tarbiya — bu tarbiya jarayonining bevosita axloqiy qadriyatlar va xulq me'yorlarini shakllantirishga yo'naltirilgan muhim tarkibiy qismidir.

Axloqiy tarbiya har qanday kasb egasi uchun muhimdir, chunki u inson faoliyatining jamiyatda qaror topgan axloqiy mezonlarga muvofiq yo'naltirilishini ta'minlaydi. Ayniqsa ma'lum darajada ijtimoiy mas'uliyat talab etuvchi shifokorlik, o'qituvchilik, huquqshunoslik kabi soha vakillari o'z vazifalarini ado etishda axloqiy tamoyillariga tayangan holda ish ko'rishi jamiyat farovonligi va ijtimoiyadolat qaror topishiga xizmat qiladi. Xususan, kasbiy mahorat bilan bir qatorda yuristning axloqiy fazilatları ham uning kasbiy xususiyatlari hisoblanadi, shu bois professional yuristning muntazam ravishda axloqiy tarbiya olishi, axloqiy kamolotga intilishi talab etiladi. [3]

Axloqiy tarbiya ta'sirida mutaxassisda mehnat intizomiga qat'iy amal qilish, o'z vazifasini halollik bilan bajarish, jamoada sog'lom va samimiy muhitni ta'minlash, shuningdek, xizmat faoliyatida qonun va axloq me'yorlariga zid holatlarga murosasiz munosabatda bo'lish kabi ijobjiy fazilatlar shakllanadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda yuridik sohada faoliyat yuritishni tanlagan mutaxassislar – yosh "yuristlar"da quyidagi fazilatlar bo'lishi talab etiladi: yuksak axloqiy ong va madaniyat, gumanizm, har qanday vaziyatda inson, uning sha'ni, manfaatlarini himoya qilish, burchga sadoqat hissi, axloqiy e'tiqodlarning mustahkamligi, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda prinsipiallik va mustaqillik, uni himoya qilish va ijtimoiy muhofaza etishda qat'iyatlilik, shuningdek, o'z kasbiy faoliyatida uchraydigan qonunbuzarlik va axloqsizlikning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasizlik hissi.[4]

Bu kabi professional fazilatlar nafaqat huquqiy bilimlar, balki chuqur va tizimli axloqiy tarbiya natijasida shakllanadi. Shu sababli, mamlakatimizdagı professional yuristlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, xususan, Toshkent davlat yuridik universiteti kabi

yetakchi yuridik oliy gohlarda talabalarga faqat nazariy bilim berish bilangina cheklanmay, balki ularda o'z kasbiga nisbatan yuksak axloqiy munosabat, halollik, insonparvarlik va vijdonlilik kabi muhim axloqiy fazilatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonining o'zida akademik halollik va ilmiy izlanishlarda etik tamoyillarga qat'iy amal qilish – milliy yuridik ta'limning samaradorligini oshirish va axloqan yetuk, malakali yuridik kadrlarni tayyorlashning muhim poydevori sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonda yuridik soha vakillarini axloqan yetuk tarzda tayyorlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'plab rivojlangan davlatlarda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar bilan uyg'un va mos ravishda kechmoqda. Garchi dunyo miqyosida yuridik kadrlarga axloqiy tarbiya berish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, deyarli har bir mamlakatda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, AQShda advokatlar va yuristlar uchun oliy yuridik ta'limda albatta professional etikaga oid maxsus kurs o'qilishi talab etiladi. Xususan, yuridik fakultetlarda "Professional mas'uliyat" (Legal Ethics) moduli majburiy bo'lib, Amerikaning Advokatlar assotsiatsiyasi (ABA) standartlariga ko'ra har bir yuridik soha talabasi o'qish davomida kamida bir marta kasbiy etika bo'yicha majburiy kursda ishtirok etishi lozim.[5] Germaniyada huquqiy ta'lim ikki bosqichli bo'lib, ikkinchi bosqich – amaliyot davrida bo'lajak sudya va advokatlar kasbiy odob hamda xizmat intizomi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar [6] Yaponiyada esa professional huquqshunoslar, sud va prokuratura xodimlari uchun xizmat davomida doimiy ravishda kasbiy axloqqa taalluqli seminar-treninglar tizimi yo'lga qo'yilgan. Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar davlat xizmatchilari uchun korrupsiyaga qarshi kurash hamda xizmat odobi qoidalariiga rioya etish bo'yicha qat'iy tartib o'rnatgan.[7] Shuningdek, Rossiya tajribasida oliy yuridik ta'lim standarti doirasida talabalarga "Yurist etikasi" fani o'qitilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, [8] bu orqali bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy burchga sodiqlik va ma'naviy fazilatlar shakllantirilishi ko'zda tutilgan.

Xalqaro tajribadan ko'rinish turibdiki, yuridik kadrlarga axloqiy tarbiya berish ularning kasbiy malakasini oshirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. O'zbekiston sharoitida esa bu yo'nalishda milliy an'ana va qadriyatlar asosida, shu bilan birga xorijiy tajribaning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtirgan holda samarali yondashuvlar ishlab chiqish zarurati mavjud.

O'zbekiston hududida zamonaviy yuridik ta'limning shakllanishi XX asr boshlariga borib taqaladi. 1918-yil 21-aprelda Turkiston Xalq universitetida Ijtimoiy-iqtisodiy fakultet tarkibida huquq bo'limi ochilgani ilk zamonaviy yuridik ta'lim asosini qo'ygan deb baholanadi. 1923-yilda ushbu fakultet negizida ilk huquqshunos mutaxassislar (71 nafar bitiruvchi) yetishib chiqqan.

Bugungi kunda yurtimizda yuridik kadrlarni tayyorlovchi bir qator oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Ular orasida eng yetakchisi va soha bo'yicha tayanch ta'lim muassasasi sifatida Toshkent davlat yuridik universiteti alohida o'rin tutadi. Mazkur universitetda talabalar nafaqat puxta yuridik bilimlarga ega bo'lishlari, balki ularning kasbiy axloqiy qadriyatları, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari ham shakllanishiga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, universitetda Yuridik klinika faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu universitet talabalarini uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish imkonini beruvchi muhim amaliy platformadir. Yuridik klinikada Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini volontyor sifatida faoliyat yuritadi. Ular professor-o'qituvchilar rahbarligida fuqarolarga yuridik maslahatlar beradi, huquqiy hujatlarni

tayyorlashda ishtirok etadi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilarining "Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar muammolarini hal qilishga ko'maklashuvchi yuridik klinika faoliyatini yo'lga qo'yish" loyihasi doirasida Yuridik klinikada faoliyat ko'rsatuvchi talabalar ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar muammosini aniqlab ularga huquqiy yordam ko'rsatishmoqda. "Ular bunday yoshlarning huquqiy xabardorligini oshirish, huquqiy savodsizlikdan kelib chiqadigan xatoliklarning oldini olish, shuningdek, ularni mavjud huquqiy himoya mexanizmlari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Talabalar bu yoshlar bilan individual suhbatlar olib borish, huquqiy maslahatlar berish, turli turdag'i huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatish bilan birga, ularning ijtimoiy va oilaviy muammolarini ham chuqur o'r ganib, tegishli mutasaddi tashkilotlarga yo'naltirish ishlarini ham amalga oshirmoqda. Misol uchun, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan yoki sudlangan o'smirlar bilan ishslash jarayonida talabalar ularga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy reabilitatsiya choralar, qonuniy huquqlari va ularni jamiyatga qayta ijtimoiylashtirish imkoniyatlari haqida tushuntirish ishlarini olib borishadi. Shu bilan birga, yetim yoki nogironligi bor yoshlar uchun davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy imtiyozlar, yordam dasturlari haqida ma'lumot beriladi. Bunday faoliyat nafaqat yoshlarni jinoyatchilik va ijtimoiy chetlanishdan asrashda muhim rol o'ynaydi, balki talabalar uchun ham katta tajriba mакtabiga aylanadi. Ular huquqiy bilimlarini real hayotdagi murakkab holatlarga tatbiq qilish, empatiya, muloqot, ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu tariqa, loyiha doirasidagi yuridik klinika faoliyatini jamiyat uchun foydali bo'lgan ikki tomonlama samaradorlikka erishmoqda.

Professional huquqshunoslarni tayyorlash tizimidagi keng qamrovli islohotlar, qabul kvotalarining oshirilishi, oliy yuridik ta'lif muassasalarining soni va geografik qamrovi kengayib borayotgani — sohaga kirib kelayotgan yosh mutaxassislarining yuksak kasbiy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Huquqshunoslar uchun ta'lif jarayonidayoq kasbiy etikaning asosiy prinsiplari, axloqiy normalar va qoidalarga ega bo'lish, shuningdek, yuqori darajadagi axloqiy kompetensiyani shakllantirish katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston yuridik ta'lif tizimida esa har bir soha (sud, advokatura, tergov-surishtiruv, prokuratura, qonun ijodkorligi va boshqalar)ga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlarni yosh kadrlarga singdirish maqsadida turli yondashuvlardan foydalanimoqda. Asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

1. Huquqiy-falsafiy yondashuv

Bu yondashuv yuridik ta'lifni huquq falsafasi va axloqiy tafakkur bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Huquq va axloq – jamiyatdagi tartibni ta'minlovchi muhim ijtimoiy me'yorlar bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Mazkur yondashuv doirasida bo'lajak huquqshunoslarga huquqning falsafiy asoslari,adolat va qonun uyg'unligi, huquq va axloq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yuzasidan chuqur bilim beriladi. "Huquq falsafasi", "Yuridik etika", "Davlat va huquq nazariyasi" kabi nazariy fanlar orqali talabalar huquqiy hodisalarga keng, ma'naviy-nazariy yondashuv asosida qarash ko'nikmasini hosil qiladi.

Ushbu fanlar orqali talabalar inson huquqlari, adolat, vijdon erkinligi kabi tushunchalarini nafaqat qonunchilik nuqtai nazaridan, balki axloqiy va falsafiy jihatdan ham tahlil qilishni o'rganadilar. Bu esa ularni nafaqat bilimli huquqshunos, balki ijtimoiy

mas'uliyatni his qiladigan,adolatparvar va prinsipial mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Misol uchun, "Yuridik etika" fanida talabalar real kasbiy vaziyatlar asosida axloqiy tanlov qilish, halollik, manfaatlar to'qnashuvi, xolislik kabi muhim masalalarni muhokama qilib, kasbiy qadriyatlarni ongli ravishda anglab yetadilar. "Huquq falsafasi" fani esa ularni huquqning mohiyati, inson tabiatidagi adolat hissi va qonun bilan axloq o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashga chorlaydi.

Bunday yondashuv huquqshunoslik ta'limini faqat yuridik texnika va qonunchilikni o'rganish bilan cheklab qo'ymaydi, balki talabalarni mustahkam ma'naviy-axloqiy asosga ega bo'lgan mutaxassislarga aylantirishga intiladi.

2. Kasb etikasiga asoslangan yondashuv.

Bu yondashuv huquqshunoslik kasbiga oid odob-axloq qoidalarini o'rgatishga qaratilgan. Yuridik ta'lim tizimida "Kasb etikasi" moduli yoki maxsus kurslar mavjud bo'lib, ular orqali talabalar turli kasbiy vaziyatlarda to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilish malakasini rivojlanadirilar.

Kasbiy etikaga oid ta'lim ko'pincha amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Masalan, sud jarayonining imitatsiyasi shaklidagi darslarda talabalar nafaqat qonunchilikni qo'llash va dalillar keltirishni, balki hakamlik madaniyati hamda protsessual odob qoidalariga amal qilishni ham o'rganadilar. Bundan tashqari, ularga haqiqiy kasbiy muammolarni aks ettiruvchi vaziyatlar – ya'ni keyslar taqdim etilib, axloqiy jihatdan to'g'ri yechim topish vazifasi yuklatiladi. Toshkent davlat yuridik universitetida faoliyat yuritayotgan yuridik klinika ham kasbiy etika prinsiplariga tayangan holda ishlaydi. Klinikada faoliyat olib boruvchi talabalar huquqiy maslahat olish bo'yicha murojaat qilgan fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish jarayonida nafaqat o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llaydilar, balki kasbiy etika tamoyillariga ham amal qiladilar. Ular mijoz bilan muomala jarayonida maxfiylikni saqlash, hurmat bilan munosabatda bo'lish, xolislik va adolatni ta'minlash kabi muhim axloqiy me'yorlarga rioya qilishadi. Bu orqali talabalar nazariy bilimlarni real hayotdagi holatlar bilan bog'lab, kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyorgarlik ko'radilar. Shu tarzda yuridik klinika talabalarning kasbiy etikani amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Masalan, talabaga nikohdan ajralish istagida bo'lgan ayol murojaat qilganda, u faqat qonuniy tartiblarni tushuntiribgina qolmay, balki mijozning shaxsiy holatini hurmat qilish, unga hamdardlik bilan yondashish, uni ayblamaslik kabi kasbiy etikaga oid tamoyillarga amal qiladi. Yoki bo'lmasa, meros bilan bog'liq nizolar yuzasidan murojaat qilgan fuqarolarning holatida talabalar har ikki tomon manfaatini hisobga olgan holda, xolislik va adolat tamoyillariga rioya qilgan tarzda maslahat berishga harakat qiladilar.

Shuningdek, talabalar har qanday huquqiy masalada murojaat qilgan mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlash — ya'ni maxfiylik prinsipiqa qat'iy amal qilishadi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ishonchli va axloqiy mas'uliyatli mutaxassis bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Yuridik klinika orqali talabalar real hayotdagi huquqiy vaziyatlarni boshdan kechirish bilan birga, kasbiy etika me'yorlarini nazariy qoidalar sifatida emas, balki amaliy hayotda doimo rioya etilishi lozim bo'lgan prinsiplar sifatida chuqur o'zlashtiradilar.

Ushbu yondashuv orqali kasbiy etika faqat nazariy me'yorlar emas, balki real hayotdagi holatlar orqali tushunarli va amaliy ko'nikmaga aylanishi ta'minlanadi.

Mazkur yondashuvlar o'zaro uzviy bog'liqlikda qo'llanilsa, yuridik kadrlarda axloqiy tarbiyani samarali shakllantirish imkonini beradi. O'zbekistonda yuridik sohada olib borilayotgan islohotlar ham aynan shu kompleks yondashuvlarni joriy etish va takomillashtirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuridik kadrlarga axloqiy tarbiya berish – jamiyatdaadolat va qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan uzoq muddatli, strategik ahamiyatga ega bo'lgan sarmoyadir. Axloqan yetuk, ma'naviy pok va yuqori kasb madaniyatiga ega huquqshunoslar shakllanganda, fuqarolarning huquqlari ishonchli himoyalanadi, sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonch ortadi, eng muhimi esa jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi.

Shu sababli yuridik ta'lif muassasalarida axloqiy tarbiyani doimiy e'tibor markazida ushlab turish zarur. Yosh huquqshunoslarni nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega, halol va mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash uchun izchil sa'y-harakatlar davom ettirilishi lozim. Chunki qonunlarga bo'lgan hurmat, avvalo, ularni yaratish, ijro etish va himoya qilish bilan shug'ullanuvchi kishilarning axloqiy darajasi va jamiyatda ularga bo'lgan hurmatdan boshlanadi.

Yuridik ta'lif jarayonida talabalarni nafaqat qonunchilikni puxta o'zlashtirishga, balki adolatparvarlik, halollik, xolislik, insonparvarlik kabi kasbiy axloqiy qadriyatlarga ham sodiq bo'lishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda nafaqat darsliklar va nazariy fanlar, balki ustoz-shogird an'analari, rolli o'yinlar, muhokamalar, keys-stadiylar va amaliy mashg'ulotlar orqali ularda huquqiy va axloqiy mas'uliyat hissi shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiyaning ta'lif jarayonida uzviy bo'lishi natijasida, bo'lajak huquqshunoslar nafaqat qonunlarni biluvchi mutaxassis, balki ularni adolat bilan qo'llay oladigan, jamiyatda ishonch uyg'otuvchi shaxs sifatida shakllanadi. Zero, huquqning kuchi uning rasmiy matnida emas, balki uni hayotga tatbiq etayotgan insonlarning vijdoni va axloqiy mas'uliyatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Топилдиева Д. Юридическое образование: международный опыт 26 августа 2024 (дата обращения: 12.03.2025) <https://yuz.uz/ru/news/yuridicheskoe-obrazovanie-mejdunarodny-opt>
2. Kozhevnikov V. To the problem of the theory of legal responsibility // Tomsk State University Journal Of Law. - Issue28, 2018.- P. 5-19
3. Макарова З. Нравственный идеал профессии юриста // Судебная власть и уголовный процесс. – Воронеж: ВГУ, 2016. №2. – Ст. 200-203. <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennyy-ideal-professii-yurista-1>
4. Топилдиева Д. Юридическое образование: международный опыт 26 августа 2024 (дата обращения: 12.03.2025) <https://yuz.uz/ru/news/yuridicheskoe-obrazovanie-mejdunarodny-opt>
5. 2024-2025 Standards and Rules of Procedure for Approval of Law Schools // Chicago: American Bar Association, 2024. – p. 19. https://www.americanbar.org/content/dam/aba/administrative/legal_education_and_admissions_to_the_bar/standards/2024-2025/2024-2025-standards-chapter-3.pdf
6. Schultz U. Legal Education in Germany—an ever (never?) ending story of resistance to change //Revista de educación y derecho= Education and law review. – 2011. – №. 4. – p. 5.
7. Index C.P. Transparency International, Corruption Perceptions Index // URL: <https://www.transparency.org/cpi2021> – 2022.

8. Васильев А.А., Куликов Е.А., Шпоппер Д. Высшее юридическое образование в России: некоторые современные тенденции, проблемы и перспективы развития //Российско-азиатский правовой журнал. – 2019. – №. 1. – С. 4-13.
9. Amirov E. From the history of Tashkent State Law University // World Bulletin of Management and Law (WBML). - Volume-14, September-2022. - P. 118-120.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).